

## O‘RTA OSIYOGA KOREYS ETNOSINING KO‘CHIRILISHI VA O‘LKA HAYOTIDA TUTGAN O‘RNI

*Turdimirzayev Mirjalol Xamidjon o‘g‘li*

*University of Business and Science, “Menejment” kafedrasi o‘qituvchisi*

[turdimirzaevmirjalol@gmail.com](mailto:turdimirzaevmirjalol@gmail.com)

+998 93 198 11 61

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada tarix fanini o‘qitish jarayonida etnografik ma‘lumotlardan foydalanishning ahamiyati, mazmun-mohiyati va usullari haqida batafsil fikr yuritilgan. Tarix fanini o‘qitishda etnografik manbaalardan foydalanishning usullari, ularni to‘g‘ri tanlay bilish va o‘z o‘rnida qo‘llash, shuningdek ma‘lumotlarning g‘oyaviy mazmunini ta‘lim-tarbiyaviy tomondan chuqur o‘zlashtirishning muhim omillarini belgilashda foydalaniladigan asosiy mezonlar asoslab berilgan. Zero, tarixni noto‘g‘ri talqinini o‘quvchilar ongiga salbiy ta‘siri kuzatilmaslikni anglatishdan iborat. Sababi, bugungi kunda tarixni va etnografiyani o‘qitishda xatoliklar sabab bir mamlakat hududida yashayotgan turli millatlar qonli to‘qnashuvlariga guvoh bo‘lib turibmiz.

**Kalit so‘zlar:** etnografiya, koreys, Koryo, Sovet Ittifoqi, migratsiya.

### I.KIRISH

Etnografiya (yunoncha so‘zdan etnos – xalq, grapho – yozish) - xalqlar haqidagi fan hisoblanadi. Shuningdek, bu fan xalqni o‘rganuvchi, ta‘riflovchi fan yoki xalqshunoslik deb nomlanadi. Shunday davrlar bo‘lganki, bu fanni “etnologiya” (“etnos” - xalq, “logos” - tushuncha) deb ham atashgan. Etnografiya dunyo xalqlarining o‘ziga xos madaniyatini, maishiy hayotini, madaniyat tarixini, etnogenezini, joylashishini, o‘zaro aloqa va munosabatlarini o‘rganadi<sup>1</sup>. Etnografiya qit‘alar, mamlakatlar yoki xalqlarga qarab tadqiq etiladi. Bu fanning eng muhim vazifalaridan biri – har bir xalqning kelib chiqishini, ularga oid etnografik ma‘lumotlarni to‘plash, umumlashtirish va tadqiq qilishdan iborat. Shuningdek, tarix fanining ajralmas qismi bo‘lgan etnografiya bilan hamkorlikda tarixni va tarixiy jarayonlarni hamda bugunimizni yaxshiroq anglaymiz. Biz hozir shunday tarixiy davrdamizki, hozir hech bir millat yoki xalq faqatgina bir millatdan iboratimiz va hech bir xalqning qoni bizga aralashmagan deya olmaydi. Bunday da‘vo bilan chiqqan Yaponiya ham hozir bu fikrdan voz kechgan. Chunki etnografik tadqiqotlar bu g‘oyani noto‘g‘riligini isbotlagan. Xalqlarning kelib chiqishi va yashab kelgan joylarini aniqlashdan maqsad, ularni ko‘chirtirib yuborish yoki etnik ozchilik deb kamsitish emas, balki, o‘zaro ahil yashash va o‘zliklarini saqlab qolishga yordam berishni ko‘zda tutishi kerak. Bu O‘zbekiston va boshqa Markaziy Osiyo mamlakatlari uchun juda muhim hisoblanadi. Sababi biz juda ko‘p millatlarga ega davlatlarmiz. Bunday xalqlar xilma-xilligi sharoitida o‘zaro ittifoq va totuvlikni saqlash uchun ham etnografik tadqiqotlar va tarixiy jarayonlarni chuqur o‘rganishni taqazo qiladi. Ayni shu maqsadda bu maqolani yozildi va o‘ylaymanki, birgina koreyslar misolida mamlakatimizdagi barcha millat vakillari o‘zaro ahil yashash kerakligini anglaydilar.

<sup>1</sup> Ashirov A. Etnologiya. “IQTISOD-MOLIYA”. Toshkent, 2008. P.10.

## II. ADABIYOTLAR TAHLILI

Ushbu mavzuda asosan rus etnograflari va etnik koreyslar tadqiqot ishlarini olib borishgan. Jumladan Chong Jin Oh, Reckel. J, Schatz. M hamda o'zbeklardan Ashirovlardir. Bular asosan O'rta Osiyodagi etnik koreyslarni iqtisodiy-ijtimoiy holatlariga e'tibor qaratganlar. Etnik koreyslarni Markaziy Osiyo xalqlariga ta'siri va o'zaro assimilyatsiya jarayoni ochiq qolgan hamda O'zbekistondagi oxirgi o'n yillikdagi o'zgarishlar ilmiy ishlar tarkibiga deyarlik kiritilmagan. Vaholanki, yuz yillar avval yurtimizning tarixiy hududlariga ko'chirib keltirilgan koreyslar mahalliy tub yerli aholiga aralashib assimilyatsiya jarayonlari kuzatilgan va ularning ikkinchi yoki uchinchi avlodlari o'zlarini to'laqonli mahalliy aholidek his qila boshlagan va ular mahalliy va respublika darajasidagi lavozimlarni ham egallaganlar. Bunga quyiroqda batafsil to'xtalamiz. Bu ilmiy tadqiqot ishida ana shu ochiq qolgan qismlar keng yoritib beriladi. Bunda Koreya Respublikasi va O'rta Osiyo Respublikalarida olib borilayotgan millatlararo bag'rikenglik siyosati hamda etnografik o'zgarishlarga alohida e'tibor qaratildi.

## III. TAHLIL VA NATIJALAR

XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlariga kelib, O'zbekiston etnografiyasini o'rganish borasida ilmiy tadqiqotlar qilish boshlandi, shuningdek, shu soha bilan shug'ullanadigan tadqiqotchi olim va o'lkashunoslar safi ham kengaydi. Ularning asarlarida o'zbek xalqi va bu o'lkaga ko'chib kelgan xalqlarning madaniy va maishiy hayotining xususiyatlari, urf-odatlari, urug'-aymoq va qabilachilik hayot tarzi va diniy e'tiqodlarini ta'riflashga intilganlar. Shu tadqiqotlarning davomi o'laroq, ushbu maqolada SSSR davrida O'rta Osiyoga koreys xalqining ko'chirib keltirilishi va o'lkaning ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga ko'rsatgan ta'siri haqida fikr yuritiladi.

Koreyslarning Markaziy Osiyoga migratsion jarayonlari asosan ikkinchi jahon urushidan oldin sodir bo'lgan bo'lsa-da, tarixiy ma'lumotlarga qaraganda, koreyslarning ko'chish jarayonlari 2 bosqichda amalga oshgan. Birinchi bosqich taxminan 1860-yillarda boshlangan bo'lib, koreyslar Koreya yarimoroli shimolidan Rossiyaning Uzoq Sharqiga ko'chib ketishgan. Migratsiyaning ikkinchi bosqichi esa 1900-1930 yillarda sodir bo'ldi. Rus tadqiqotchisi Prjevalskiy (1867 yil) Koreya hududlarida aholining haddan tashqari ko'payishi, qashshoqlik va mahalliy feodallarning aholiga nisbatan jabr-zulmining kuchayishi bu ko'chishlarga sabab bo'lgan deb tushuntirib berdi<sup>2</sup>.

1863-yilda 12 koreys oilasi Rossiyaning Uzoq sharqiga ko'chib o'tgandan so'ng, migratsiya qiluvchi koreyslar soni yildan-yilga ortib, 1867-yilga kelib 1800 taga yetdi. Rossiya chegarasini noqonuniy kesib o'tish Koreyada o'lim bilan jazolanishi mumkin edi, lekin rus hukumati koreyslarning ko'chib kelishini ochiqdan-ochiq qo'llab-quvvatladilar. Koreyslar orasida yashagan Prjevalskiy (koreyslar o'zlarini Kauli deb atashgan) ularning mehnatsevarligini juda qadrlagan. Shuningdek, Prjevalskiy koreyslarning orasida poligamiya (ko'p xotinlilik) nihoyatda ko'p ekanligini o'z

<sup>2</sup> Kokaisl P. Koreans in Central Asia – a different Korean nation. Asian Ethnicity (Online journal), 2018. P.6-7.

esdaliklarida qayd etgan. Qiziqarli tomoni shundaki, bu ayollarning o‘z ismlari ham bo‘lmagan va ularni oilaviy munosabatlardagi atamalar (ona, xola, buvi) bilan tanishgan.

Koreyaning shimoliy qismida XIX asrning 60-yillari oxirida dehqonlar umuman hosil yetishtira olmadilar, sababi ob havo juda noqulay kelgan hamda koreys oilalarini ekishga boshqa urug‘lik zaxiralari yo‘q edi va natijada 1869-yil qishda koreyslarning Rossiyaga ko‘chishlari jadallashdi. Tarixchi Nasekin esdaliklariga qaraganda, qurollangan rus askarlari koreyalik qochqinlarga qarata o‘q uzgan va Koreya chegarasidagi daryosi qirg‘og‘ida ko‘plab odamlar halok bo‘lgan. Shunga qaramay, 1870-yillarda Rossiyaning Uzoq Sharqida 32 ta koreys qishloqlari vujudga kelgan. 1884-yilgacha Rossiyaga ko‘chib kelganlar Rossiyaning chegara hududlarida qolishi mumkin edi, lekin keyinchalik kelganlar esa uzoqroq joylarga ko‘chib o‘tishga majbur bo‘lishgan<sup>3</sup>. Uzoq Sharqda koreys tilida o‘qitiladigan yuzlab koreys maktablari va boshqa o‘quv muassasalari tashkil etilgan. Koreys tilida gazeta va jurnallar nashr etilgan; koreys teatri, ko‘plab havaskorlar jamoalari tuzildi. Koreys tili kundalik hayotning ko‘plab sohalarida paydo bo‘lgan: undan jamoa, oilalar va ixcham yashaydigan koreyslarning kundalik muloqotida foydalanilgan.

1937-yilga kelib Etnik koreyslar (taxminan 200 000) Sovet Uzoq Sharqidan Qozog‘iston va O‘zbekistonga to‘liq va majburan deportatsiya qilina boshlangan<sup>4</sup>. Sababi I. Stalin bir joyda yashab turgan bir turdagi xalqlar va millatlar uyushqoqlik qilsa ular Sovet Ittifoqiga bo‘ysunmay qo‘yishidan xavfsiragan hamda yagona Sovet xalqini shakllantirish uchun xalqlar va millatlarni aralashtirishni maqsad qilgan edi. Evakuatsiya markazlari vagonlar bo‘lib, ular O‘rta Osiyoga o‘tadigan vokzallarda joylashgan edi. Ko‘chirilgan koreyslarning 500 ga yaqini yo‘lda halok bo‘lgan. Chunki, tashuv vagonlariga odatdagidan ko‘p odamlar majburan yuklangan. Natijada vagon ichida muhit yomonlashgan: oziq-ovqat yetishmasligi, gigiyena talablarining buzulishi hamda juda uzoq masofa ko‘chirtirilayotganlarga ayniqsa, yosh bolalar va ayollarni o‘limiga sabab bo‘lgan. Katta shaharlar yaqinida joylashtirilgan koreyslar hatto kam maoshli ish topishda ham katta qiyinchiliklarga duch kelishgani alohida qayd etiladi. Undan oldin bu etnik guruh 1920-yillarda sholi yetishtirishni boshlash uchun Markaziy Osiyoga (asosan Rossiyaning Uzoq Sharqidan) taklif qilingan<sup>5</sup>. Koreyslarning O‘rta Osiyoga ommaviy ko‘chishi Xalq Komissarlari Kengashining №1428-326ss Nizomiga muvofiq amalga oshirildi. Ko‘chirish Yaponiyadan josuslik havfi bilan rasman izohlangan<sup>6</sup>. Tarixiy ma‘lumotlarga asosan, sovet hujjatlarida deportatsiyaning ko‘plab shakllari Kommunistik partiyaning yuqori rahbariyati tomonidan 1927, 1930 va 1932 yillarda ko‘rib chiqilganligini qayd etiladi.

<sup>3</sup> Kokaisl P. Koreans in Central Asia-a different Korean nation. Asian Ethnicity (Online journal), 2018. P.8.

<sup>4</sup> Chong Jin OH. Soviet korean (koryo-in) in Central Asia and korean religious activities in post-soviet Central Asia. Ankara Üniversitesi Dil ve Tarih-Coğrafya Fakültesi Dergisi, 2013. P.215-216.

<sup>5</sup> Kokaisl P. Koreans in Central Asia-a different Korean nation. Asian Ethnicity (Online journal), 2018. P.8-9.

<sup>6</sup> Kokaisl P. Koreans in Central Asia-a different Korean nation. Asian Ethnicity (Online journal), 2018. P.9.

1930–40-yillarda koreys tili “ona tili” deb nomlangan fan sifatida deyarli barcha koreys o‘quvchilari bo‘lgan maktablarda o‘qitildi. O‘sha davrda koreys qishloq aholisi uchun qulay sharoit yaratilgan bo‘lib, o‘qituvchilar va darsliklar ham yetarli darajada taminlangan edi. Biroq, 1950-yillarning o‘rtalarida maktablarda koreys tili darslari asta-sekin yo‘qola boshladi, vaziyat esa yanada og‘irlashdi. Sovet Ittifoqi hayotining barcha jabhalarida rus tilining hukmronligi yaqqol namoyon bo‘ldi; shuning uchun ta’limda “ruslashtirish” siyosati ixtiyoriy-majburiy xususiyatga ega bo‘la boshlagan<sup>7</sup>.

#### IV.MUHOKAMA

Yarim milliondan ortiq koreyslar sobiq Sovet Ittifoqi hududida yashaydi, ularning uchdan ikki qismi Markaziy Osiyoda: Qozog‘istonda 100 ming, O‘zbekistonda 180 ming va Qirg‘izistonda 30 ming kishi yashaydi. Qolganlari Rossiya va boshqa MDH davlatlarida istiqomat qilishadi. Dastlab, deportatsiya qilinganlar qishloq, agrar rayonlarda to‘plangan bo‘lsa, bugungi kunda etnik koreyslarning aksariyati shahar markazlarida joylashgan. SSSRda yashovchi barcha koreyslarga nisbatan “Sovet koreyslari” atamasi ishlatilgan, ammo koreyslar o‘zlarini “Koryo saram” yoki “Choson saram” deb atashgan. Ya’ni Koreya odami yoki Choson aholisi. Bu bilan etnik koreyslar o‘zlarining tarixiy ildizlariga urg‘u beradilar. Bilasizki, Koryo va Choson bugungi koreyslarning qudratli tarixiy davlatlaridir. Hozirgi paytda Janubiy Koreyada “Koryo-in” postsovet koreyslariga nisbatan eng ko‘p qo‘llaniladigan atama hisoblanadi<sup>8</sup>. Buni ba’zan xaqorat o‘rnida ham ishlatishadi. Sababi Koreya zaminidan ketganlar o‘zligini yo‘qotgan va xalqimizga nisbatan ma’naviy jinoyat sodir etganlar deya izohlashadi.

#### Markaziy Osiyodagi koreys aholisi 1939-2002

Country	1939	1959	1970	1979	1989	2002
Uzbekistan	73,000	139,000	148,000	163,000	183,100	169,600
Kazakhstan	n/a	74,000	82,000	92,000	103,300	99,700
Kyrgyzstan	n/a	n/a	7,528	n/a	n/a	19,000(‘99)
Tadzhikistan	n/a	n/a	8,484	n/a	n/a	6,000(‘99)
Turkmenistan	n/a	n/a	2,536	n/a	n/a-	3,000(‘99)
Russian Federation	168,009(‘26)	n/a	n/a-	n/a	107,100	148,600

Yuqoridagi jadvalga e’tibor qaratidigan bo‘lsak, O‘zbekistonda etnik koreyslarning soni 2002-yilga kelib kamayib ketgan. Rossiya Federatsiyasida esa asta-sekin o‘sib borgan. Bularning barchasi Rossiyaning iqtisodiy rivojlangan yirik shaharlariga ko‘chish barcha etnik guruhlar, shu jumladan ko‘pchilik ruslar uchun ham kuzatilishi mumkin bo‘lgan tendensiya bilan izohlanadi<sup>9</sup>.

<sup>7</sup> Reckel, J, Schatz, M. Korean Diaspora – Central Asia, Siberia and Beyond. Universitätsverlag Göttingen, 2020. P.25-26.

<sup>8</sup> Chong Jin OH. Soviet korean (koryo-in) in Central Asia and korean religious activities in post-soviet Central Asia. Ankara Üniversitesi Dil ve Tarih-Coğrafya Fakültesi Dergisi, 2013. P.215.

<sup>9</sup> Saveliev, I. Homeland and Diasporic Space: Transnational Practices of Central Asian and Sakhalin Koreans. Hokkaido University Collection of Scholarly and Academic Papers : HUSCAP. Nagoya, 2018. P.32.

Etnik koreyslar o‘rtasida o‘tkazilgan ijtimoiy so‘rovnomaga javob berganlardan biri: biz to‘rt oyoq bilan harakatlanadigan hamma narsani yeymiz. Stol va stullardan bundan mustasno deb javob bergan edi<sup>10</sup>. Umumiy qilib aytganda, oziq-ovqat etnik guruhlar uchun ramzlarni - diniy, etnik va ijtimoiy belgilarni ifodalashda o‘z shaxsiyligini namoyon etish imkonini beradigan juda kuchli vositadir. Hozirgi kunda ba‘zi mahalliy (rus) taomlari koreys ingredientlaridan foydalanadi: Sovet koreyslari vaqti-vaqti bilan rus borshi (karam sho‘rva) ga guruch qo‘shadilar. Aksincha, ko‘plab sovet koreys restoranlarida guruch o‘rniga rus garnituri (oq non) beriladi. Bu esa ovqat tayyorlashda ham o‘ziga xos assimilatsion jarayonlar ketayotganligidan dalolat beradi. Kimchi iste‘mol qilish koreyslarning o‘ziga xosligini namoyish etadi va butun dunyo bo‘ylab barcha etnik koreyslarning taomlanish ratsionini umumlashtiradi<sup>11</sup>. Bu maxsus taom (taom) tayyorlash usuli taxminan 100 yil oldin Xitoyliklardan o‘zlashtirilgan. Buning sababi shundaki, Sovet davrida Xitoy karamini topish qiyin bo‘lgan va u ko‘pincha sabzi bilan almashtirilgan. Bu asta-sekin sabzi salatiga aylandi (piyoz, sarimsoq, yog‘ va sirka mavjud) va hozirda sovet koreyslari tomonidan odatiy taom hisoblanadi. Shuningdek, bu taomni shahar bozorlarida, hatto koreyslar ko‘p yashaydigan Markaziy Osiyo davlatlarida ham uchratish mumkin. Koreyslar ko‘pincha it go‘shini iste‘mol qilish borasida mashhur hisoblanadi, ammo Koreyada bunday taomlar unchalik ham keng tarqalmagan. Sovet koreyslari orasida it go‘shini mashhurligining sababi Sovet davrida taomlanish ratsioniga hech qanday taqiq yoki jazolar qo‘yilmaganligidir. Shuning uchun ham “koryo saram”<sup>12</sup> lar bu yerda o‘zlarini “uylarida” - “ona yurtlarida” his qilib kelishgan<sup>13</sup>. Hozirgi vaqtda Markaziy Osiyo koreyslarining it go‘shidan taomlar tayyorlaydigan o‘z restoranlari bor va bu restoranlar qozoqlar va o‘zbeklar orasida tobora ommalashib bormoqda. Toshkentda sovet koreyslari qatori kichik janubiy koreyslar ham mavjud. Biroq, har ikkala turdagi koreys restoranlari alohida va bir-biridan an‘analarida ham keskin farq qiladi<sup>14</sup>. Shuningdek koreyslar xitoyliklardan o‘zlashtirgan oziq-ovqatlar va qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ham bozorlarimizda ko‘payib qoldi. Jumladan koreys karami va koreyslar kimchi deb ataydigan mashhur taomi bizda chimchi yoki achchiq-chuchuk shaklida bizning ham taomnomamizda mustahkamlanib bormoqda. Va yaqinda koreyslarning turup (korscha-muu) sabzavoti hamda sangchu deb ataladigan salat bargi bozorlarimizda mahalliy sabzavotlar bilan birga sotilmoqda. Bundan tashqari yoshlar orasida koreyaning o‘ziga xos san‘ati ya‘ni K-POP musiqa janri ham keng

<sup>10</sup> Kokaisl P. Koreans in Central Asia-a different Korean nation. Asian Ethnicity (Online journal), 2018. P.16.

<sup>11</sup> Kokaisl P. Koreans in Central Asia-a different Korean nation. Asian Ethnicity (Online journal), 2018. P.17-18.

<sup>12</sup> Reckel. J, Schatz. M. Korean Diaspora – Central Asia, Siberia and Beyond. Universitätsverlag Göttingen, 2020. P.12.

<sup>13</sup> Saveliev, I. Homeland and Diasporic Space: Transnational Practices of Central Asian and Sakhalin Koreans. Hokkaido University Collection of Scholarly and Academic Papers : HUSCAP. Nagoya, 2018. P.40.

<sup>14</sup> Kokaisl P. Koreans in Central Asia-a different Korean nation. Asian Ethnicity (Online journal), 2018. P.17.

tarqalmoqda. Garchi men bu turdagi musiqani yoshlar orasida tarqalishiga qarshi bo‘lsamda ta’qiqlashga vakolatim yo‘q. Yoshlarga maslahatim shuki, xalqlararo madaniyatlar yoyilishi va milliy xilma-xillik yaxshi mafkura lekin, boshqa xalqlar madaniyati va o‘ziga hosligidan namuna ko‘chirayotganda o‘zligingizga, milliyligingizga va diniy hamda milliy xususiyatlaringizga zid kelmaydiganini olish kerak deb hisoblayman.

## V.XULOSALAR

Xulosa qiladigan bo‘lsak, etnografik tadqiqotlar shuni isbotladiki, koreyslarning O‘rta Osiyoga ko‘chirilishi o‘lkada yashayotgan xalqlar hayotining turli sohalarda juda muxim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etmoqda. Bu xalqlar mahalliy aholi bilan aralashib, nafaqat o‘zlarining balki o‘lka madaniyatini taraqqiyotiga o‘z hissasini qo‘shmoqda. Aynan shu etnik guruh orasidan yetishib chiqqan kadrlar kommunikatsiya tizimida, xalqaro savdoda, diplomatiya va boshqa sohalarda samarali faoliyat olib bormoqda. Shu kabi dalillarga tayanadigan bo‘lsak, koreyslar bilan etnik yaqinlik va do‘stona munosabatlar bugungi kunga kelib, o‘zining yangi rivojlanish bosqichiga ko‘tarilmoqda. Bunga misol qilib oladigan bo‘lsak O‘zbekiston Respublikasining hukumati va ayrim yirik kompaniya va tashkilotlarida kelib chiqishi etnik koreys va shu bilan birga fuqaroligi o‘zbek bo‘lgan koreyslar ham salmog‘i ortib bormoqda. Jumladan O‘zbekiston Respublikasi Havo Yo‘llari Milliy Assotsatsiyasi (UzAirways)da Sergey Elliotovich Kim – Parvozlarni xizmati departament direktori bo‘lib faoliyat yuritmoqda. Shuningdek, Agreppina Shin 2017-yil 19-oktyabrdan boshlab O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vaziri bo‘lib ishlagan. Bundan yakuniy xulosa shuki, etnik koreyslar O‘rta Osiyo mamlakatlarida yashab kelgan holda o‘zlarining milliyligini yo‘qotmasdan saqlanib qolmoqdalar va bu mamlakatlarning ichki hayot jarayonlaridan yakkalanib chetda qolmasdan faol ishtirok etib kelmoqdalar. Bunda ularning mehnatga bo‘lgan munosabatlari va qo‘shni beshta respublikalarning boshqa millat vakillarini kamsitib diskriminatsiya qilmasdan, tolerantlik xususiyatlarini namoyish qilayotganlari tahsinga sazovordir.

## VI.ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Ashirov A. *Etnologiya*. “IQTISOD-MOLIYA”. Toshkent, 2008.
2. Kokaisl P. *Koreans in Central Asia – a different Korean nation*. *Asian Ethnicity* (Online journal), 2018.
3. Reckel. J, Schatz. M. *Korean Diaspora – Central Asia, Siberia and Beyond*. Universitätsverlag Göttingen, 2020.
4. Saveliev, I. *Homeland and Diasporic Space: Transnational Practices of Central Asian and Sakhalin Koreans*. Hokkaido University Collection of Scholarly and Academic Papers : HUSCAP. Nagoya, 2018.
5. Chong Jin OH. *Soviet korean (koryo-in) in Central Asia and korean religious activities in post-soviet Central Asia*. Ankara Üniversitesi Dil ve Tarih-Coğrafya Fakültesi Dergisi, 2013.